



IQTISODIYOTGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH VA BOSHQARISHNING `ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ravshanova Muxtarama Yusup qizi

Termiz davlat universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10974381>

ARTICLE INFO

Received: 8th April 2024

Accepted: 9th April 2024

Published: 15th April 2024

KEYWORDS

Investitsiya, innovatsiya, kichik biznes, xorijiy investitsiya, liberallashtirish, muhofaza.

ABSTRACT

Ushbu maqolada mamlakatimiz iqtisodiyoti xo`jalik yurituvchi subyektlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali faoliyatini takomillashtirish haqida so`z boradi.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish shakllari investitsiyalarni jalb qilish uslubi sifatida namoyon bo`lib, loyihani amalga oshirish maqsadida ta`minlanadi.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish shu bilan bir qatorda jalb qilish usullari sifatida quyidagilarni ko`rish mumkin:

- o`z-o`zini moliyalashtirish, ya`ni faqat o`z mablag`lari hisobiga investitsiyalash;
- aksiyalashtirish yoki ulushli moliyalashtirishning boshqa shakllari;
- kredit orqali moliyalashtirish (banklarning investitsion kreditlari, obligatsiyalarni chiqarish);
- lizing;
- byudjetdan moliyalashtirish;
- ko`rilgan turli usullar kombinatsiyalari asosida aralash moliyalashtirish;
- loyihaviy moliyalashtirish.

Ichki moliyalashtirish (o`z-o`zini moliyalashtirish) investitsion loyihani amalga oshirishni rejalashtirayotgan korxonaning hisobiga ta`minlanadi. Xususiyl mablag`lardan foydalanish o`zida - ustav (aksiyadorlik) kapitali, shu bilan birga mablag`lar oqimi, korxonaning faoliyati natijasida shakllanadigan, avvalo, sof foyda va amortizatsion ushlanmalarda namoyon bo`ladi. Investitsion loyihalarni mustaqil byudjet yo`li bilan ajratish xususan qat`iy maqsadli xarakterga ega bo`lib, investitsion loyihalarni amalga oshirishga yo`naltirilgan mablag`lardan shakllanadi.

O`z-o`zini moliyalashtirish faqatgina kichik investitsion loyihalarda ishlatilishi mumkin. Keng kapital xajmli investitsion loyihalar, qoidaga asosan, faqat ichki hisobdan emas, balki tashqi manbalar hisobidan ham moliyalashtiriladi.

Ichki manbalar hisobiga investitsiyalarni jalb qilish usuliing quyidagi o'ziga xos ijobiy xususiyatlari mavjud:

- yengil, oson, qulay va tezkorligi
- to'lov qobiliyati va inqirozga yuz tutish riskining pastligi;
- qarz va jalb qilingan manbalarni to'lash zaruriyatining yo'qligi bilan bog'liq yuqori daromadlilik;
- ta'sisshilar tomonidan boshqarilishi va xususiylikning saqlanganligi;

Salbiy xususiyatlari:

- jalb qilinadigan mablag'lar hajmining cheklanganligi;
- ho'jalik faoliyatidan xususiy mablag'larning ajralishi;
- investitsion resurslardan foydalanish samaradorligi ustidan nazorat qilishdagi mustaqillikning cheklanganligi.

Tashqi moliyalashtirish tashqi manbalar: moliyaviy institutlar, nomoliyaviy kompaniyalar, aholi, davlat, chet el investorlari mablag'lari, shu bilan birga tashkilot ta'sisshilarining pul resurslarining qo'shimcha jamg'armalar hisobiga amalga oshiriladi. U jalb qilingan (ulushli moliyalashtirish) va qarz (kreditli moliyalashtirish) mablag'lar yo'li bilan amalga oshiriladi.

Investitsiyalarni jalb qilishda yangi usullardan foydalanish kun sayin ortib bormoqda. Ulardan biri bu seleng hisoblanadi. Seleng bu lizingning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Seleng bu - ikki tomonlama jarayon bo'lib, majburiyatlardan iboratdir. Aniq belgilangan to'lov evaziga ma'lum kompaniyaga mol-mulkni seleng qilishi va undan foydalanish huquqini berishi mumkin. Lekin mol-mulkni oluvchi uning egasi tomonidan birinchi so'rovning o'zida qaytarish huquqiga ega bo'ladi. Moliyalashtirish shakliga ko'ra seleng faoliyati bank faoliyatiga juda yaqin hisoblanadi.

—Forfeyting termini inglizcha —forfaiting va fransuzcha —a forfait – bir butun, umumiy summa so'zidan olingan. Forfeyting 60-yillarning boshida juda keng tarqalgan. Xom-ashyo bozorida eksportyorlar uchun kurashda raqobatni kuchaytirish ta'sirida tashqi savdoda paydo bo'lgan.

Forfeyting – bu:

- shunday moliyalashtirish usuliki, investitsion resurslarni shakllantirishda zayom manbalaridan biridir;
- tijorat kreditining bank kreditiga aylangan shakli. Ya'ni importyorga yo'naltirilgan bo'lib, veksellarni sotib olish orqali eksportyorni kreditlashtirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'grisida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 30 aprel 1998 yil.
2. "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 25 aprel 1996 yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

4. Malikov T.S. Moliya: O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T.: "Iqtisod-moliya", nashriyoti, 2018 y. – 268b.
5. Malikov T.S., Jalilov Sh.Q. Moliyaviy tizim: Zamonaviy talqin: o'quv uslubiy qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2016, - 116 b.
6. Abdullaev YO.A., Qoraliev T.M., va boshqalar "Bank ishi". O'quv qo'llanma - B.M.: T.: "Iqtisod-Moliya", 2009. - 576 b.
7. . Bobakulov T.I. Milliy valyutaning barqarorligi. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007.–184 b.
8. Boltaboev M.R., Qosimova M.S. va boshqalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. –T.: TDIU, 2010y. 240 b.
9. Jumaev N.X. O'zbekistonda valyuta munosabatlarini taritibga solish metodogiyasini takomillashtirish.T. "Fan va texnologiya",2007y.286b.
10. Inomov H.H – Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – "Toshkent" 2009. - 33 b.

